

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kamilov Farxod,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası v.b. dotsenti (PhD)
e-mail: bekkomilov@mail.ru

INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354960>

ANNOTATSIYA

Maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko‘rsatishning yangi tizimi va amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili yoritib berilgan. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasiga zamonaviy yondashuvlar va dunyoda kuzatilayotgan so‘nggi tendensiyalarning mazmuni ochib berilgan. Rivojlangan davlatlarning internat muassasalarini noinstitutSIONallashtirish strategiyalar, ilg‘or tajriba va amaliyotlari tizimli tahlil etilgan. NoinstitutSIONallashtirish jarayonlarida muqobil parvarishlash xizmatlari tizimini yaratishning ilmiy-amaliy jihatlari va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oila va jamiyatga qo‘shilishi, mustaqil hayotda ular uchun yuzaga keladigan xavf-xatarlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni zarur resurslar bilan ta‘minlaydigan “geytkiping” profilaktika tizimining mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat, noinstitutSIONallashtirish, muqobil parvarishlash xizmatlari, kichik hajmli uylar, profilaktika, geytkiping, keys-menejment, ijtimoiy ish, erta aralashuv, shaxsiy yordamchi, uyda parvarish, abilitatsiya, rehabilitatsiya, kunduzgi parvarish.

Камилов Фарход,

и.о. доцента (PhD) кафедры «Социально-гуманитарные науки»
Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
e-mail: bekkomilov@mail.ru

ДЕИНСТИТУЦИОНАЛИЗАЦИЯ ИНТЕРНАТНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРЕДОВЫЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

АННОТАЦИЯ

В статье освещена новая система оказания социальной помощи и услуг социально уязвимым слоям населения и анализ осуществляемых в последние годы реформ. Раскрыты современные подходы в сфере социальной защиты детей и содержание последних мировых тенденций. На системной основе проанализированы стратегии, передовой опыт и практики институционализации интернатных учреждений развитых стран. В процессе институционализации раскрыты научно-практические аспекты создания системы альтернативных услуг по уходу и интеграции в семью и общество лиц, нуждающихся в

социальной защите, содержание системы профилактики «гейткипинг», обеспечивающей их своевременное выявление и обеспечение необходимыми ресурсами.

Ключевые слова: социальная помощь, социальное обслуживание, неинституционализация, альтернативный уход, маломерные дома, профилактика, гейткипинг, кейс-менеджмент, социальная работа, раннее вмешательство, личный помощник, уход на дому, абилитация, реабилитация, дневной уход.

Kamilov Farhod,

Acting Associate Professor (PhD) of the Department of “Social and Humanitarian Sciences” of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
e-mail: bekkomilov@mail.ru

DE-INSTITUTIONALIZATION OF INTERNAL INSTITUTIONS: MODERN APPROACHES AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

ABSTRACT

The article highlights the new system of providing social assistance and services to socially vulnerable groups of the population and an analysis of the reforms carried out in recent years. Modern approaches in the field of social protection of children and the content of the latest global trends are disclosed. Strategies, best practices and practices for institutionalizing residential institutions in developed countries were analyzed on a systematic basis. In the process of institutionalization, the scientific and practical aspects of creating a system of alternative care services and integration into the family and society of people in need of social protection, the content of the gatekeeping prevention system, which ensures their timely identification and provision of the necessary resources, are disclosed.

Keywords: social care, social service, non-institutionalization, alternative care, small homes, prevention, gatekeeping, case management, social work, early intervention, personal assistant, home care, habilitation, rehabilitation, day care.

KIRISH

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning farovonligini oshirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Yaqin davrga qadar ijtimoiy himoya tizimini muvofiqlashtiruvchi va mazkur sohada davlat siyosatini olib boruvchi organ va umuman olganda yagona qarash mavjud bo‘lmagan. Vazirlik va idoralarga yuklatilgan vazifalarning takrorlanishi sababli yagona ma‘lumotlar bazasini markazlashgan holda yuritilishga imkon bo‘lmagan. Aholining muhtoj qatlamlari ijtimoiy xizmatlarni olishlari uchun turli idora va tashkilotlarga murojaat etishlari zarur bo‘lgan. Bu o‘z navbatida, ortiqcha vaqt, mablag‘ sarflanishi hamda sarsongarchilikka olib kelgan.

Aholiga sifatli hamda manzilli ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2023-yil 1-iyunda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. 6 ta vazirlik va idoralarning tuzilmalaridagi muassasalar Agentlik tasarrufiga o‘tkazildi. Xususan, 2024-yil 1-yanvardan Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidan bolalar uylari, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidan mehribonlik uylari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari Agentlik tuzilmasiga o‘tkazildi [1]. Qisqa vaqt ichida yangicha yondashuv va tamoyillarni qo‘llash orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoya qilish tizimi hamda internat muassasalarni noinstitutsonallashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi.

METODOLOGIYA

Noinstitutsonallashtirish – bu internat shakldagi ijtimoiy xizmatlardan, izolyatsiya va segregatsiya sharoitlaridan mustaqil hayotga o‘tishni nazarda tutuvchi siyosiy va ijtimoiy jarayondir [2]. Noinstitutsonallashtirish bolalarni muassasalarga joylashtirishning oldini olishni nazarda

tutuvchi bolalarga internat muassasalarida emas, balki o'z oilalarida, do'stlari va qo'shnilari orasida o'sish imkonini beradi.

BMTning Bolalar jamg'armasi YUNISEF internat turidagi muassasalarni yopish va bola huquqlari hamda natijaga yo'naltirilgan standartlarga asoslangan jamoa darajasida bolalarni parvarish qilish bo'yicha turli xil xizmatlarni yaratish sifatida belgilaydi. Noinstitutsionallashtirish keng ko'lamli individual qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yaratish bilan parallel ravishda amalga oshirilishini tavsiya etadi [3, - P.52.].

Shuningdek, internat muassasalarini noinstitutsonallashtirishda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oila va jamiyatga qo'shilishi, mustaqil hayotda ular uchun yuzaga keladigan xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni zarur resurslar bilan ta'minlaydigan "geytkiping" profilaktika tizimi yaratilishi kerak.

ASOSIY QISM

Internat muassasalarini noinstitutsonallashtirish strategiyasini amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini hisobga olish va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda tajriba almashish, yaxshi amaliyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali "O'zbekiston modeli"ni joriy etish muhimdir.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirishda Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNISEF xalqaro tashkilotlarining ekspertlari bilan faol hamkorlik ta'minlangan.

Hozirda jahonda nogironligi bo'lgan bolalarni maxsus internatlarga joylashtirishdan voz kechilib, inklyuziv jamiyat modeliga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bolaning ota-onasi va yaqin qarindoshlarining yordami bilan ijtimoiy rehabilitatsiya qilinishi, barcha bolalar qatori ta'lim olish, tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega ekanligi o'z samarasini bera boshladi. Nogironligi bo'lgan bolalarning institutsional muassasalarga tushish sabablari tahlil qilinganda, bola ulg'aygan sari ota-onalar, qonuniy vakillar ularni parvarishlash va tarbiyalashda qiychiliklarga duch keladi, ularning ishlashiga imkon yo'qligi bois nogironligi bo'lgan farzandini "Muruvvat" bolalar internat uylariga topshirishga majbur bo'layotganligi ma'ulum bo'ldi. Bu borada Ijtimoiy himoya milliy agentligi mahallaga birlashtirilgan ijtimoiy xodimlarning samarali ish yuritishi tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilk bor ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga barcha tuman va shaharlarda hamda mahallalarda yagona davlat organi orqali ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, muammolarni hal qilish imkoniyatini beruvchi tizim yaratildi. Og'ir ijtimoiy vaziyatdagi oilalarga kirgan holda kompleks baholash, ularning kuchli taraflari va imkoniyatlarini o'rganish maqsadida "keys-menejment" usuliga asoslangan ijtimoiy ish (keys) ochish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, kompleks yondashilishi, oilaning ehtiyoji va kuchli tomonlari baholanishi natijasida 1 ta xizmat turi uchun qilingan murojaat (keys ochish) asosida 1,9 ta xizmat (yordam) ko'rsatishni nazarda tutuvchi oilaning individual xizmatlar rejasi ishlab chiqilgan hamda zarur ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatilmoqda [4].

Mamlakatimizda oilalar tomonidan qiyin vaziyatda boladan voz kechish holatlarining oldini olish va bola oila muhitida tarbiyalanishi uchun zarur ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Og'ir vaziyatdagi oilalarga mahalla darajasida parvarishlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi natijasida internat tipidagi muassasalar xizmatlariga talablar kamayishiga erishilmoqda. Mahallada ijtimoiy xodimlar tomonidan Bolalar uylari va "Muruvvat" uylaridagi bolalarning oilalari bilan aloqalarini tiklash, oilalar ijtimoiy holatini o'rganib, ularga xizmat va yordamlar ko'rsatgan holda farovonligini oshirib, ularni oilaga qaytarish choralari ko'rilmogda.

Darhaqiqat, internat muassasalarini noinstitutsonallashtirish jarayoni to'g'ri rejalashtirilishi va amalga oshirilishi uchun mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish zarur. Bu jarayon uchta asosiy jihatni o'z ichiga oladi:

- ✓ "geytkiping" deb ataladigan qo'llab-quvvatlash xizmatlarini joriy etish;
- ✓ oilaga yaqin bo'lgan muqobil parvarishlash xizmatlarini rivojlantirish;
- ✓ atrof-muhitning o'zi, odamlar va jamiyat bu jarayonni to'g'ri qabul qilishi, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va ehtiyojlarini tushunishi muhimdir.

Bolalarni internat muassasalariga tushishining oldini olish va mahalla darajasida profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish orqali noinstitutallashtirish jarayonlarini samarali amalga oshirish zarur. Shu boisdan, bolalarni oilaga yaqin boʻlgan muhitda tarbiyalashga qaratilgan muqobil ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, preventiv (nazorat) mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

BMTga aʼzo davlatlar "BMTning bolalarni muqobil parvarishlash boʻyicha rahbariy tamoyillari"ni hisobga olishga va yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga yaqinlashtirilgan muqobil parvarishlash shakllariga joylashtirish ustuvor yoʻnalish sifatida eʼtibor qaratmoqda. BMT tavsiyasiga koʻra, bu tamoyilga, ayniqsa, tugʻilganidan 3 yoshgacha boʻlgan bolalarga nisbatan rioya qilish kerak, chunki erta yoshdagi bolalar koʻproq individual yondashuv asosida parvarish qilishga muhtoj. Shu boisdan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, uch yoshgacha boʻlgan bolalarni kichik hajmli uylarga joylashtirish soʻnggi chora boʻlishi kerak, imkon darajasida tutingan foster oilalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Har bir mamlakatda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimlari tarixiy jihatdan rivojlanib kelgan va yechilayotgan vazifalarning oʻxshashligi va bir xilligiga qaramay, ular yondashuvlari, tashkil etilishi va prinsiplari boʻyicha tubdan farq qiladi. Ilmiy izlanishlar doirasida ushbu sohadagi davlat va nodavlat sektorlarning roliga qarab chet elda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tahlil qilindi.

Xususan, tutingan oila instituti (fostering) dunyoning koʻplab mamlakatlarida bolalarning institutsional taʼlimining eng samarali muqobili sifatida tan olingan. Jahon amaliyotida bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllari juda koʻp, bu doimiy yoki vaqtincha ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolani qoʻllab-quvvatlash.

Ota-ona karamogʻisiz qolgan bolalarga yordam berishning xalqaro tajribasini Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya kabi mamlakatlar misolida koʻrib chiqamiz:

Amerika Qoʻshma Shtatlarida uzoq muddatli yashash uchun moʻljallangan bolalar uylari mavjud emas. Ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni vaqtincha saqlash uchun maxsus muassasalar mavjud boʻlib, ularning maqsadi har bir bola uchun imkon qadar tezroq yangi oilani topishdir. Hozirda qariyb 428 ming amerikalik bola goʻdaklikdan 18 yoshgacha homiylik ostida foster oilalarda yashashadi.

“Foster care” bolani tarbiyalashga ixtisoslashgan oilalar hisoblanadi. Bunday oilalardagi ota-onalar professional tayyorgarlikdan oʻtgan boʻlib, ularga bola tarbiyasi uchun nafaqalar belgilanadi.

Buyuk Britaniyada ham “Foster care” tizimi shakllangan boʻlib, unda bolalar ixtisoslashgan oilalarga bir necha soatdan bir necha kungacha joylashtiriladi. Bolaning oila aʼzosi kutilmaganda kasalxonaga tushishi natijasida bola qarovsiz qolsa shu turdan foydalaniladi. Shuningdek, Britaniyada uzoqroq – ikki yilgacha boʻlgan muddatga bolalarni ixtisoslashgan oilalarga joylashtirish turi ham mavjud. Oilaga gʻamxoʻrlik qilish shakllari Buyuk Britaniyada:

Eng mashhur, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun oila tizimining shakli bu “fostering” va “mainstay”. hamda “emergency care” tizimi ham mavjud.

“Fostering” – bolani oʻzoq vaqt ichida tutingan oilada yashab kelishi tushuniladi (voyaga yetkunga qadar), “mainstay” esa qisqa muddatga tutingan oilada yashab turiladi, oʻzini biologik oila qiyin hayotiy vaziyatdan chiqib ketishga qadar.

“Emergency care” – ushbu ijtimoiy xizmat bir necha kun yoki haftaga bolani tutingan oilada yashab turishiga imkon beradi (oilaga favqulot vaziyatiga tushib qolsa) [6].

Ota-onalik huquqida mahrum qilish istisno hollarida qoʻllaniladi. Bu vaziyatda ijtimoiy xizmatni koʻrsatadigan tashkilotlarning oʻrni katta ahamiyatga ega, chunki ular qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilani rehabilitatsiya qilish ishlarini olib borishlari kerak boʻladi, buning uchun bola tutingan oilaga berilgandan keyin hamda undan oldin oila bilan ishlash maʼsuliyatni qonunchilikda belgilab koʻyilishi shart. Buning uchun bola “yetimlik” statusini ega boʻlishi shart emas, asosiy maqsad bolani yana biologik oilaga qaytib borishidir.

Shunga ijtimoiy xizmat koʻrsatadigan tashkilotlar bola bilan uzluksiz ish olib borishi kerak. Ota-onalar bilan ishlash, ularga psixologik, oilaviy terapiya, konsultativ ishlarni olib borishlari kerak. Natijada, bugungi Buyuk Britaniyada vasiylik ostidagi bolalarning uchdan ikki qismi oʻz oilalarga

qaytib borishadi. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida asosiy vazifa davlat tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan.

Ularning maqsadli xarajatlari tarkibida, qoida tariqasida, bolalar uchun kunduzgi maishiy xizmatlarga yoʻnaltirilgan mablagʻlar mavjud. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning ustuvor yoʻnalishi institutsional modeldan voz kechish va ularni modernizatsiya qilishdir. Faqatgina byudjet tashkilotlari boʻlgan ijtimoiy xizmatlar aholiga yashash joyida bepul yordam koʻrsatadilar. Bolalar yetimligini oldini olishda koʻngillilar (volonter) tashkilotlari katta oʻringa ega va ularning faoliyati koʻpincha mahalliy byudjet hisobidan toʻliq moliyashtiriladi.

Fransiya tajribasida yetim qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish boʻyicha oilaviy taʼlim qoʻllab-quvvatlanadi. Davlatning ijtimoiy siyosati oilaga yordamni mahalliy darajada amalga oshirishga qaratilgan boʻlib, qiyin hayot sharoitida boʻlgan bola yashash joyini oʻzgartirmasdan professional xizmatdan foydalanishi mumkin. Fransiyaning ijtimoiy xizmat tizimining oʻziga xos xususiyati bu ijtimoiy ish spektriga koʻplab kasblarning kiritilganligidir: onalar – uy bolalar bogʻchasi tarbiyachilari, ijtimoiy xizmat mutaxassislari (yordamchilari), ixtisoslashgan oʻqituvchilar, iqtisodiy masalalari boʻyicha oilaviy maslahatchilar. Bundan tashqari, Fransiya ijtimoiy ishchilarga xoʻjalik ishlar boʻyicha yordamchilari, ijtimoiy tarbiyachilar, parvarish boʻyicha mutaxassislar, ijtimoiy mediatorlar, ijtimoiy ishchilar va boshqalar kiradi.

Yevropa davlatlarida bolalar masalasi boʻyicha ijtimoiy xizmat rivojlangan tizim sifatida ish yuritadi. Asosiy maqsadi, bolalar oilada tarbiyalanishi hamda psixologik va iqtisodiy yordam olishlari. Muammoli oilaga ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy yordam koʻrsatgan holda, bolalarni biologik oilaga qaytib borishlari uchun amaliy yordam koʻrsatib kelish kerak. Albatta “fostering” tizimi bola uchun juda foydali, chunki bola oila ichida tarbiya oladi, bu juda muhim va uni yana oʻz oilasi bilan yashab ketishi va oʻz ota-onasi bilan muloqotda boʻlishi undan ham muhimroq.

Gruziyada 2005-yildan boshlab davlat tomonidan yetim va ota-ona qaramogʻisiz bolalarni muqobil joylashtirishning ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalariga joylashtirish shaklini noinstitutsonallashtirish dasturi amalga oshirilishi boshlangan. Bolalar uylaridagi sogʻlom bolalarni muqobil joylashtirishning (vasiylik va homiylikni belgilash, bolani farzandlikka berish, tutingan (foster) oilaga berish) shakllariga berishgan. Biroq, aksariyat fuqarolar nogironligi boʻlgan yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni oila tarbiyasiga olishni istamagan.

Natijada, Gruziya hukumati tomonidan oilaviy muhitga yaqin kichik hajmli bolalar uylarini ochish tashabbusi ilgari surilgan. Hozirda Gruziyada jami 37 ta kichik hajmli bolalar uyi mavjud boʻlib, institutsional muassasalar faoliyati tugatilgan.

Gʻarbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun moʻljallangan internat tipidagi muassasalarini noinstitutsonallashtirish 1970-yillarda boshlangan. Ushbu jarayon davomida tajriba va amaliyotda oilani qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirmasdan turib, internat muassasalarini yopish mumkin emasligi oʻz isbotini topdi. Shu boisdan koʻplab davlatlar individual ehtiyojlarga asoslangan va oilaviy muhitga yaqinlashtirilgan muqobil parvarishlash, qoʻllab-quvvatlash xizmatlari va subsidiyalangan uy-joy dasturlarini yaratishga aldohida eʼtibor qaratdilar.

Koʻpgina mamlakatlarda rejalashtirish va xizmat koʻrsatishda insonga yoʻnaltirilgan yondashuv qabul qilingan. Bu jarayon nogironligi boʻlgan shaxsning qiziqishlari va tanlovini hisobga olgan holda xizmatlarni rejalashtirish imkonini beradi. Irlandiyada 2005-yildan beri nogironligi boʻlgan shaxslarlarga xizmat koʻrsatishda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvlar qoʻllaniladi. Shu bilan birga nogironligi boʻlgan shaxslar uchun insonga yoʻnaltirilgan xizmat koʻrsatish rejalaridan foydalanish va amalga oshirish majburiydir. Italiyada ham nogironligi boʻlgan shaxslarga xizmat koʻrsatish rejalarini ishlab chiqishda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv qoʻllaniladi [7].

Bugungi kunda Norvegiya va Shvetsiyada barcha internat muassasalari yopilgan [8]. Soʻnggi paytlarda Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida sogʻliqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, taʼlim, infratuzilma, bandlik va ijtimoiy uy-joy sohalarini qamrab olgan idoralararo hamkorlikni nazarda tutuvchi muqobil parvarishlash xizmatlarini rivojlantirishdan koʻra, nogironligi boʻlgan shaxslarning oilalarini qoʻllab-quvvatlash va oʻz vaqtida profilaktika choralarini koʻrishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Buyuk Britaniyada “Birgalikda yashash dasturi” deb nomlangan xizmat mavjud bo‘lib, undan aqliy va ruhiy salomatligida buzilishlari bo‘lgan shaxslarning uyiga tashrif buyurgan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Muqobil ijtimoiy xizmatlar nafaqat bolaning internat muassasalarga tushib qolishining oldini oladi, balki muassasalardan oilaga qaytarilgan shaxslarni oilaga reintegratsiya qilish va ularni mustaqil hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi [9].

1970-yillardan beri kichik hajmli uylar barcha turdagi nogironligi bo‘lgan, jumladan, aqliy va ruhiy jihatdan buzilishlari bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan internat muassasalariga eng keng tarqalgan muqobil parvarishlash shakli hisoblanadi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kichik hajmli uylar tashkil etishda oilaviy muhit va a‘zolarining soniga e‘tibor qaratilgan [10].

Masalan, AQSH va Shvetsiyada kichik hajmli uylarga ko‘pi bilan 6 nafargacha nogironligi bo‘lgan shaxslar joylashtirilishi belgilangan. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kichik hajmli uylar shaklidagi muqobil parvarishlash shakli eng keng tarqalgan model hisoblanadi.

2007-yildan boshlab Chexiyada internat muassasalarini noinstitutsonallashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda Chexiyada muqobil parvarishlash xizmatlarining yangi shakli oilaga yaqin muhitdagi kichik hajmli uylarni tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilgan. Kichik hajmli uylarga sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra mustaqil hayot kechirish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan va o‘zgalarning yordamiga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslar joylashtiriladi. Kichik hajmli uylarda quyidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi:

- ✓ boshpana bilan ta‘minlash (yashash);
- ✓ parvarishlash (ovqatlantirish, shaxsiy gigiyenaga rioya etilishiga ko‘maklashish)
- ✓ uy xo‘jaligini yuritish va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- ✓ ta‘lim va rehabilitatsiya-ko‘ngilochar tadbirlar;
- ✓ ijtimoiy-terapevtik tadbirlar;
- ✓ huquqlarni himoya qilish va amalga oshirishda ko‘maklashish.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash paketlari teng imkoniyatlar, erta rivojlanish va jamiyatda mazmunli ishtirok etishni ta‘minlash uchun juda muhimdir. Ushbu paketlar terapiya, yordamchi qurilmalar, inklyuziv ta‘lim va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi xizmatlardan foydalanishni ta‘minlash orqali bolalar va oilalar duch keladigan to‘siqlarni kamaytiradi.

Ular ota-onalarga ko‘maklashadi, moliyaviy va hissiy yuklarni yengillashtiradi, erta aralashuv, sifatli ta‘lim va jamoatchilik ishtiroki orqali bolalarning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘llarini yaratadi. Alohida oilalarni qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, bunday paketlar qashshoqlikni kamaytirish, inson huquqlarini ilgari surish va inklyuziv hamjamiyatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishi va ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirilishining oldini olish ko‘p jihatdan individual xizmatlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlarining mavjudligi bilan belgilanadi, masalan, erta aralashuv, shaxsiy yordamchi, uyda parvarishlash xizmatlari, abilitatsiya va rehabilitatsiya, kunduzgi parvarish markazlari, surdotarjimonlar, kommunal to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar, transport xarajatlari va uy-joyni moslashtirish xarajatlari uchun subsidiyalar ajratish kabi ijtimoiy yordam va xizmatlardan iborat.

Ijtimoiy himoya agentligi tomonidan ikki yil davomida oilani qo‘llab-quvvatlash va bolalar bilan tizimli ishlash yo‘nalishida yangi ijtimoiy xizmatlarni joriy etdi. Bu jarayonda kichik hajmli bolalar uylari bolani oilaga yaqin sharoitda tarbiyalash va jamiyatga moslashtirishga xizmat qiluvchi yangi model amaliyotga tatbiq etildi. Kichik hajmli bolalar uyi (Small Group Home) modeli rivojlangan davlatlarda uzoq vaqt samarali qo‘llangan.

Dastlab kichik hajmli bolalar uylari 2024-yil noyabr–dekabr oylarida Toshkent shahrida sinov tariqasida ochilib, psixik va jismoniy rivojlanishida o‘ziga xosliklari bo‘lgan, lekin oilaga berish imkoniyati bo‘lmagan bolalar joylashtirildi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha jami 15 ta kichik hajmli uylarda jismoniy va psixik jihatdan buzilishlari bo‘lgan yetim va ota-ona qaramog‘idan

mahurum bo'lgan bolalar oila muhitida tarbiyalanmoqda. 200-250 nafar bolalar tarbiyalanayotgan Mehribonlik va Muruvvat internat muassasalarida bolalar uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilgan bo'lsada har bir bolani individual yondashuv asosida tarbiyalash imkoni yo'q. Kichik hajmli bolalar uyida bolalar soni ko'pi bilan 9-10 nafar bo'lib, kun davomida tarbiyachilar ular bilan birga bo'lishadi.

Bu yerda har bir bolaga individual yondashish hamda mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish bilan birga oila muhitida ulg'ayish va oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalanish imkoniyati yaratiladi. Kichik hajmli bolalar uylarini tashkil etish va barqaror modelning qo'llanishii natijasida Taxiotosh Bolalar uyi (Qoraqalpog'iston Respublikasi), Kitob Bolalar uyi (Qashqadaryo viloyati), Toshkent shahar Bolalar uyi va Qo'qon shahar Bolalar uyi faoliyati tugatildi.

Hozirda Agentlik tomonidan respublikada mavjud 4 ta Bolalar uylari va 7 ta "Muruvvat" nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uylarini noinstitutsonallashtirishning yo'l xaritasi ishlab chiqilmoqda.

XULOSA

Internat muassasalarini noinstitutsonallashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim asosi jamoatchilik, mutaxassislar, ayniqsa nogironligi bo'lgan bolaning oilasi va yaqinlari hamda qo'ni-qo'shnilarining bolani oilada tarbiyalash muhimligi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi, bu haqda xabardorligini oshirish muhim hisoblanadi. Internat muassasalarini noinstitutsonallashtirish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillardan biri oila va jamiyatdagi stigma va stereotiplardir.

Aholining nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan stigma va stereotiplarini o'zgartirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, jiddiy sa'y-harakatlarni talab qiladi. Shu boisdan, nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgan munosabatni o'zgartirish uchun mavjud imkoniyatlar va davlat dasturlaridan foydalanish zarur. Ommaviy axborot vositalari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini targ'ib qilish, ularning jamiyatda mustaqil hayot kechirishini ta'minlash, diniy va mahalliy idoralar tomonidan targ'ibot ishlarining kuchaytirilishi bolaning internat muassasasiga tushishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

O'zbekistonda 2026-2030-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy himoyaga oid strategiyasini ishlab chiqish;

Bolalar uylari va "Muruvvat" bolalar internat uylarini noinstitutsonallashtirish bo'yicha yo'l xaritani tasdiqlash;

Oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb etish va hamkorlikni kuchaytirish;

Jamoat joylarida hamda markaziy televideniye orqali ijtimoiy yetimlik (farzanddan voz kechish)ning oqibatlarini va uning oldini olish, shuningdek, oilani mustahkamlashga qaratilgan vizual video-animatsion kliplar, qisqa metrajli filmlar va ko'rsatuvlarni namoyish etish;

Aholini yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyaga olishga rag'batlantirishga qaratilgan targ'ibot materiallari, muqobil joylashtirish shakllariga berilgan va tutingan oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar hamda tutingan ota-onalar to'g'risida qisqa metrajli filmlar va ko'rsatuvlarni namoyish etish.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82 son farmoni. 2023-yil 1-iyun.
2. <https://enil.eu/independent-living/definitions/>
3. UNICEF (2010) At Home or in a Home, Formal Care and Adop_ on of Children in Eastern Europe and Central Asia, p.52.
4. Ijtimoiy himoya fakt va raqamlarda. <https://ihma.uz>.
5. Замечание общего порядка № 5 Комитета ООН по правам инвалидов "Самостоятельный образ жизни и включение в местное сообщество".

6. Ismaylova R. SH.Rashidova Foster oila nima? Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar (xalqaro tajriba asosida). <https://api.moiti.uz>.
7. EU Agency for Fundamental Rights: From institutions to community living for persons with disabilities: perspectives from the ground, 2018).
8. WHO & World Bank (2011). World Report on Disability.
9. EU Agency for Fundamental Rights: From institutions to community living for persons with disabilities: perspectives from the ground, 2018).
10. UNICEF (2010) At Home or in a Home, Formal Care and Adoption of Children in Eastern Europe and Central Asia, p.52.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000